

JINOYAT HUQUQIDA ASOSIY VA QO'SHIMCHA JAZOLAR JAZO TIZIMI SIFATIDA

O'narboyev Shoxzamon Dilshodjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat qonunchiligini qo'llash

nazariyasi va amaliyoti mutaxassisligi magistranti

onarboyevshoxzamon@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada jazo tushunchasining etimologik va huquqiy mazmuni, uning jinoyat huquqidagi o'rni hamda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida belgilangan jazo tizimi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida jazoning maqsadlari, prinsiplari, xususan insonparvarlik va individuallashtirish tamoyillari yoritilgan. Shuningdek, jazo turlarining tasnifi, ularning o'zaro bog'liqligi va bosqichma-bosqich qo'llanish mexanizmi ilmiy asosda tahlil etilgan. Maqolada jazo tizimining profilaktik ahamiyati hamda zamonaviy jinoyat huquqidagi roli ochib berilgan.

Kalit so'zlar: jazo, jinoyat huquqi, jazo tizimi, jinoyat kodeksi, insonparvarlik prinsipi, individuallashtirish, profilaktika, jazolash, huquqiy ta'sir, jamoat ishlari, ozodlikdan mahrum qilish

TADQIQOT METODLARI

Mazkur tadqiqotda umumilmiy va maxsus huquqiy metodlardan foydalanildi. Xususan, tahlil va sintez metodi orqali jazo tushunchasi va uning elementlari o'rganildi. Qiyosiy-huquqiy metod yordamida jazo tizimining rivojlanish bosqichlari baholandi. Formal-yuridik metod orqali Jinoyat kodeksi normalari tahlil qilindi. Shuningdek, tarixiy yondashuv asosida jazo tushunchasining shakllanish jarayoni ko'rib chiqildi.

KIRISH. JAZONING MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI

Avvalo milliy qonunchiligimizning jazo tizimini muhokama qilishdan avval "Jazo" so'zining lug'aviy manosi to'xtalsak. "Jazo" so'zi o'zbek tiliga arab tilidan (جزاء — jazā') kirib kelgan bo'lib, uning etimologik ildizi "mukofotlash", "to'lash" yoki "evaz qaytarish" ma'nolarini anglatuvchi j-z-y (جزى) o'zagiga borib taqaladi¹. Ko'rib turganimizdek bu so'z o'zbek tiliga arab tildan kirib kelgan ekan, "Jazo" so'zining klassik huquqiy va diniy matnlarda "yaxshilikka yaxshilik, yomonlikka yomonlik" (evaz) ma'nosi tushuntirilgan². Demak, bu so'z faqatgina salbiy ma'noga ega emas ekan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida jazo tushunchasi va uning maqsadlari aniq huquqiy normalar asosida belgilab berilgan. Xususan, JKning 42-moddasiga ko'ra³, jazo jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo'llanadigan majburlov chorasi hisoblanadi. Mazkur modda jazoning mohiyatini ochib berib, uni shaxsni muayyan huquq va erkinliklardan mahrum etish yoki ularni cheklash orqali amalga oshiriladigan huquqiy ta'sir shakli sifatida tavsiflaydi.

Shu moddaning davomida jazoning **asosiy maqsadlari** ham belgilangan bo'lib, ular mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatni davom ettirishiga to'sqinlik qilish hamda nafaqat mahkumning o'zi,

¹ <https://share.google/PsoWkZtfRHbvDAPxA>; <https://uz.wikiquote.org/wiki/Jazo>

² <https://www.google.com/search?q=https://abdurrahman.org/languages/arabic/lughat-ul-quran-dictionary-of-quran-words/>

³ <https://lex.uz/docs/-111453#-184342>

balki boshqa shaxslar tomonidan ham yangi jinoyatlar sodir etilishining oldini olishdan iborat. Bu holat jazoning nafaqat jazolash, balki profilaktik va tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Jazo qo'llash jarayonida **insonparvarlik prinsipi** muhim o'rin tutadi. Bu prinsip JKning 7-moddasida mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari jismoniy azob yetkazish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko'zlamasligi kerak. Aksincha, jazo shaxsni tuzatishga, uni jamiyatga qayta moslashtirishga xizmat qilishi lozim.

Mazkur modda yana bir muhim qoidani belgilaydi, unga ko'ra jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan uning axloqan tuzalishi va yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun zarur hamda yetarli bo'lgan jazo chorasi tayinlanishi shart. Bu esa jazoni individuallashtirish prinsipining ifodasi bo'lib, har bir holatda shaxsning o'ziga xos jihatlari hisobga olinishi zarurligini anglatadi.

Shuningdek, JK 7-moddasida⁴ jazoni tanlashda bosqichma-bosqichlik tamoyili ham o'z aksini topgan. Ya'ni, jazodan ko'zlangan maqsadlarga yengilroq choralar orqali erishish mumkin bo'lgan hollarda og'irroq jazo tayinlanmasligi lozim. Faqatgina yengil choralar yetarli bo'lmagan taqdirdagina og'irroq jazolar qo'llanishi mumkin.

Shu tariqa, JKning 42-moddasi va 7-moddasi o'zaro uyg'un holda jazo institutining mazmun-mohiyatini, uning maqsadlarini hamda uni qo'llashning asosiy prinsiplarini belgilab beradi. Bu normalar jinoyat huquqida adolat, insonparvarlik va maqsadga muvofiqlik tamoyillarining ta'minlanishiga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasining 1926 va 1959 yillarda qabul qilingan JK larda jazo tushunchasi berilmagan edi. Faqat 1994 yil 22 sentyabrda qabul qilingan Jinoyat kodeksida *jazoning qonundagi tushunchasi* berildi. Bungacha jazo tushunchasi jinoyat huquqi nazariyasida ishlab chiqilgan edi, xolos⁵. Bundan ko'rinadiki nazariy qarashlar qonunchiligimizda o'z o'rnini topdi va JK 42-moddasida jinoyat jazo o'zi nima ekanligini anglatuvchi norma paydo bo'ldi va mustahkamlandi.

I.Karpes "Qonunda jazoning mavjud bo'lishining o'zi axloqiy jihatdan beqaror bo'lgan shaxslarga nisbatan ruhiy ta'sir qiladi. Jinoyat jazo shaxsni jinoyat sodir qilish imkoniyatlaridan mahrum qiladi. Shu tufayli jazoning jinoyatchilikni oldini olish kuchi oshadi⁶" deb ta'kidlagan edi. Rus olimi Ivan Karpets tomonidan ilgari surilgan mazkur fikr jinoyat huquqida jazoning profilaktik ahamiyatini chuqur ochib beradi. Uning qarashlariga ko'ra, jazoning mavjudligi faqat sodir etilgan jinoyatga javob chorasi bo'lib qolmay, balki jamiyatdagi boshqa shaxslarning xulq-atvoriga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Avvalo, olim jazoning ruhiy ta'sir mexanizmiga e'tibor qaratadi. Ya'ni, jinoyat qonunchiligida jazo choralarning mavjudligi, ayniqsa axloqiy jihatdan barqaror bo'lmagan, huquqbuzarlikka moyil shaxslar ongida qo'rquv va ehtiyotkorlik hissini shakllantiradi. Bu holat shaxsni jinoyat sodir etishdan tiyib turuvchi ichki to'siq vazifasini bajaradi. Demak, jazo bu yerda faqat tashqi majburlov vositasi emas, balki ichki psixologik tormoz sifatida ham namoyon bo'ladi.

Shuningdek, Karpets jazoning yana bir muhim jihatini – shaxsni jinoyat sodir etish imkoniyatidan mahrum qilishini ta'kidlaydi. Masalan, ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanilganda, shaxs jamiyatdan ajratiladi va uning yangi jinoyat sodir etish ehtimoli keskin kamayadi. Bu esa jazoning maxsus oldini olish funksiyasi bilan bevosita bog'liqdir.

⁴ <https://lex.uz/docs/-111453#-184342>

⁵ M. Usmonaliyev, P. Bakunov. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: «Nasaf» nashriyoti, 2010. – 374 bet.

⁶ Карпец И.И. Наказание. Социальные, правовые и криминологические проблемы. — М.: «Юридическая литература», 1973, с. 112.

Olimning fikrida umumiy profilaktika g'oyasi ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Ya'ni, jazo muqarrarligi va uning qo'llanilishi haqidagi tasavvur jamiyat a'zolariga ogohlantiruvchi signal bo'lib xizmat qiladi. Natijada, boshqa shaxslar ham huquqqa xilof xatti-harakatlardan o'zlarini tiyishga harakat qiladi. Shu tariqa jazoning jinoyatchilikni oldini olishdagi roli kuchayadi.

Biroq ushbu fikrni zamonaviy jinoyat huquqi nuqtai nazaridan baholaganda, jazoning faqat qo'rqitish yoki izolyatsiya qilish vositasi sifatida emas, balki shaxsni tuzatish va ijtimoiylashtirishga xizmat qiluvchi vosita ekanligini ham inobatga olish zarur. Chunki hozirgi huquqiy tizimlarda, jumladan O'zbekiston jinoyat qonunchiligida ham, jazo insonparvarlik prinsipi asosida qo'llanilib, shaxsni jamiyatga qayta moslashtirishga qaratiladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki jazo shaxsiylik xususiyatiga ega bo'lishi lozim, ya'niki jazo faqatgina jinoyat sodir etgan shaxsgagina berilishi va uning sodir etgan qilmishi tufayli davlat tomonidan qo'llaniladigan jazo chorasi tufayli uning oila a'zolari va qarindoshlari aziyat chekmasligi lozim. Jazo uchun zarur bo'lgan shaxsiylik xususiyatining mavjud emasligi, jumladan, mulkni musodara qilishni jazo turlaridan chiqarib tashlashni talab qildi⁷.

MUHOKAMA. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT QONUNCHILIGIDA JAZO TIZIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 43-moddasi jazo tizimini belgilab beruvchi asosiy normalardan biri hisoblanadi. Ushbu modda orqali jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan jazo turlari aniq va tizimli ravishda ko'rsatib o'tilgan. Bu esa jazo choralarning qonuniylik, aniqlik va tartiblilik asosida qo'llanilishini ta'minlaydi.

Mazkur moddaning birinchi qismiga muvofiq, asosiy jazolar qatoriga bir nechta mustaqil jazo turlari kiritilgan bo'lib, ular turli darajadagi ijtimoiy xavflilikka ega jinoyatlar uchun mos ravishda qo'llaniladi. Jumladan, jarima eng yengil iqtisodiy ta'sir chorasi sifatida namoyon bo'lib, u shaxsga moddiy jihatdan ta'sir ko'rsatish orqali uning xulq-atvorini tuzatishga qaratilgan. Muayyan huquqdan mahrum qilish esa shaxsning ma'lum faoliyat bilan shug'ullanish yoki muayyan huquqlardan foydalanishini cheklash orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, JK 43-moddasiga kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, majburiy jamoat ishlari ham mustaqil jazo turi sifatida joriy etilgan bo'lib, u mahkumni jamiyat foydasiga bepul mehnat qilishga jalb etish orqali tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Axloq tuzatish ishlari esa shaxsni mehnat faoliyati orqali ijtimoiy foydali xulqqa yo'naltirishni nazarda tutadi.

Mazkur modda doirasida xizmat bo'yicha cheklash va intizomiy qismga jo'natish kabi jazolar alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular faqat harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'llanilishi bilan ajralib turadi. Bu holat jazo tizimining differensial yondashuv asosida shakllantirilganligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish jazolari shaxsning erkin harakatlanish huquqini turli darajada cheklash orqali amalga oshiriladi. Eng og'ir jazo chorasi sifatida esa umrbod ozodlikdan mahrum qilish belgilangan bo'lib, u faqat alohida og'ir jinoyatlar uchun qo'llaniladi.

JK 43-moddasining ikkinchi qismida qo'shimcha jazo masalasi ham o'z ifodasini topgan. Unga ko'ra, asosiy jazodan tashqari mahkumga harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish tarzidagi qo'shimcha

⁷ Каримов И.А. Адолат — қонун устуворлигида. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси иккинчи чақирик VI сессиясидаги маъруза, 2001 йил 29 август // Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. — 10-жилд. — Т.: «Ўзбекистон», 2002. — Б. 26-50.

jazo ham tayinlanishi mumkin. Bu esa shaxsning ijtimoiy-huquqiy maqomiga qo'shimcha ta'sir ko'rsatish orqali jazodan ko'zlangan maqsadga erishishni kuchaytiradi.

Shu bilan birga, mazkur modda muayyan huquqdan mahrum qilish jazosining ikki xil – ham asosiy, ham qo'shimcha jazo sifatida qo'llanilishi mumkinligini ham belgilaydi. Bu esa sudga har bir ishning holatidan kelib chiqib, eng maqbul jazo choralari tanlash imkonini beradi.

Umuman olganda, JKning 43-moddasi jazo tizimini kompleks tarzda tartibga solib, jinoyat huquqida jazolarning turlari, ularning qo'llanish doirasi va o'ziga xos xususiyatlarini aniq belgilab beradi. Mazkur norma jazo institutining izchil va adolatli qo'llanilishiga xizmat qiladi.

Jazo tizimi

ularning nisbiy og'irligini inobatga olgan holda, yengilidan og'iriga qarab qat'iy belgilangan tartibda joylashtirilgan, yagonaligi, o'zaro bog'langanligi hamda bir-birini to'ldirganligi bilan ajralib turadigan davlat majburlov choralari (tizim elementlari)ning tadrijiy va to'la-to'kis ro'yxatini tashkil etadi⁸.

Jinoiy jazo tizimida **asosiy jazolar** o'zining avtonom tabiati va yakka tartibda qo'llanilishi bilan ajralib turadi. Ulardan farqli o'laroq, **qo'shimcha jazolar** mustaqil qo'llanilish xususiyatiga ega emas va asosiy jazoning ta'sir doirasini kengaytiruvchi aksessuar (to'ldiruvchi) element hisoblanadi. Shuningdek, amaldagi qonunchilikda **aralash (kombinatsiyalashgan) jazolar** ham mavjud bo'lib, ular sanksiya doirasida sud tomonidan muayyan holatlarga ko'ra yo asosiy, yo qo'shimcha chora sifatida tanlab olinishi mumkin bo'lgan egiluvchan majburlov vositalaridir.

JARIMA. JKning 44-moddasi jarima jazosini eng yengil, ammo samarali iqtisodiy ta'sir chorasi sifatida belgilaydi. Ushbu modda orqali jazoning moliyaviy xarakteri ochib berilib, u aybdorning mulkiy manfaatlariga ta'sir qilish orqali uning xulq-atvorini tuzatishga qaratilganligi ko'rinadi. Jarimaning bazaviy hisoblash miqdoriga bog'lab belgilanishi esa uning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga mos ravishda qo'llanishini ta'minlaydi.

Moddaning eng muhim jihatlaridan biri shundaki, jarima o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda u boshqa jazo turlari bilan almashtirilishi mumkin. Bu holat jazoni muqarrar qilish prinsipini ta'minlaydi. Ya'ni, shaxs jarimani to'lashdan bo'yin tovlasa yoki undirish imkoni bo'lmasa, baribir jazo boshqa shaklda ijro etiladi. Bu esa jazoning samaradorligini oshiradi va huquqbuzarning javobgarlikdan qochib ketishiga yo'l qo'ymaydi.

⁸ Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 2. Jazo haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan. – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 22 bet.

Quyida jarimani boshqa jazo turlariga almashtirish mexanizmi jadval ko'rinishida ifodalangan:

Jarimaning to'lanmagan miqdori	Almashtiriladigan jazo turi	Hisoblash nisbati (Proporsiya)	Maksimal cheklov (Muddat)
1 BHM (bazaviy hisoblash miqdori)	Majburiy jamoat ishlari	2,5 soat jamoat ishi	480 soatdan ko'p bo'lmagan muddatga
16 BHM (bazaviy hisoblash miqdori)	Axloq tuzatish ishlari	1 oy ish staji	3 yildan ko'p bo'lmagan muddatga
16 BHM (bazaviy hisoblash miqdori)	Xizmat bo'yicha cheklash	1 oy xizmat muddati	3 yildan ko'p bo'lmagan muddatga
16 BHM (bazaviy hisoblash miqdori)	Ozodlikni cheklash	1 oy muddat	3 yildan ko'p bo'lmagan muddatga
16 BHM (bazaviy hisoblash miqdori)	Ozodlikdan mahrum qilish	1 oy muddat	3 yildan ko'p bo'lmagan muddatga

Ushbu tartib bir nechta muhim huquqiy maqsadlarga xizmat qiladi. Birinchidan, jazo muqarrarligini ta'minlaydi. Ikkinchidan, iqtisodiy jazo chorasi samara bermagan hollarda uni yanada ta'sirchanroq choralar bilan almashtirish imkonini beradi. Uchinchidan, sudga har bir holatni individual baholab, eng maqbul jazo turini tanlash imkoniyatini yaratadi.

Shu tariqa, JK 44-moddasi jarimani nafaqat mustaqil jazo turi sifatida, balki zarurat tug'ilganda boshqa jazo choralari o'tish mumkin bo'lgan moslashuvchan mexanizm sifatida ham namoyon etadi.

MUAYYAN HUQUQDAN MAHRUM QILISH. JKning 45-moddasida nazarda tutilgan muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi shaxsning ma'lum lavozimni egallashi yoki muayyan faoliyat bilan shug'ullanishini vaqtincha taqiqlash orqali amalga oshiriladigan huquqiy ta'sir chorasi hisoblanadi. Ushbu jazo turi, odatda, jinoyat aynan shaxsning egallab turgan lavozimi yoki amalga oshirayotgan faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan hollarda qo'llaniladi va sud hukmida qaysi huquq yoki faoliyat cheklanayotgani aniq ko'rsatib o'tiladi.

Mazkur jazo asosiy jazo sifatida tayinlanganda bir yildan besh yilgacha, qo'shimcha jazo sifatida esa bir yildan uch yilgacha muddatga belgilanadi. Shu bilan birga, u faqat mustaqil jazo sifatida emas, balki boshqa jazolarga qo'shimcha chorasi sifatida ham keng qo'llanishi mumkin. Bu esa sudga har bir ishning xususiyatidan kelib chiqib, yanada aniq va maqsadga muvofiq jazo tayinlash imkonini beradi.

Agar ushbu jazo ozodlikdan mahrum qilish yoki intizomiy qismga jo'natish bilan birga qo'llansa, u asosiy jazoning butun muddati davomida amal qiladi va qo'shimcha ravishda sud belgilagan muddat ham hisobga olinadi. Boshqa hollarda esa uning muddati hukm qonuniy kuchga kirgan paytdan e'tiboran boshlanadi.

Muhim jihatlardan biri shundaki, qonunchilik tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarga nisbatan ushbu jazoning qo'llanishini cheklaydi. Ya'ni, odatda ularni tadbirkorlik huquqidan mahrum qilishga yo'l qo'yilmaydi, faqat og'ir oqibatlariga olib kelgan holatlar bundan mustasno. Bu esa iqtisodiy faoliyat erkinligini himoya qilishga qaratilgan muhim kafolat hisoblanadi

MAJBURIY JAMOAT ISHLARI. Bu jazo turi mahkumni jamiyat foydasiga haq to'lanmaydigan ishlarni bajarishga majbur qilish orqali amalga oshiriladi. Uning asosiy xususiyati shundaki, shaxs jamiyatdan ajratilmaydi, balki ijtimoiy foydali faoliyatga jalb etiladi. Shu jihatdan u eng yengil va tarbiyaviy yo'nalishga ega jazolardan biri hisoblanadi. Jazodan bo'yin tovlangan taqdirda esa u yanada og'irroq jazo — ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtiriladi, bu esa jazo tizimidagi bosqichma-bosqich kuchayish mexanizmini ko'rsatadi.

AXLOQ TUZATISH ISHLARI. Mazkur jazo majburiy jamoat ishlariga nisbatan biroz og'irroq bo'lib, shaxsni mehnatga majbur qilish va ish haqining bir qismini davlat foydasiga ushlab qolish orqali ta'sir ko'rsatadi. Bu yerda iqtisodiy va mehnat ta'siri uyg'unlashgan. Shaxs jamiyatdan ajratilmaydi, lekin uning iqtisodiy manfaatlari cheklanadi. Jazodan bo'yin tovlash holatida bu jazo ham ozodlikni cheklash yoki mahrum qilish bilan almashtiriladi.

XIZMAT BO'YICHA CHEKLASH. Bu jazo faqat harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'llanilishi bilan o'ziga xosdir. U shaxsni xizmatdagi ayrim huquq va imtiyozlardan mahrum qilish hamda pul ta'minotining bir qismini ushlab qolish orqali amalga oshiriladi. Mazkur jazo umumiy jazo tizimida maxsus subyektga nisbatan qo'llaniladigan choradir va ayrim hollarda ozodlikdan mahrum qilish o'rniga alternativ sifatida qo'llanishi mumkin.

OZODLIKNI CHEKLASH. Bu jazo turi oraliq bosqich hisoblanadi. Unda shaxs to'liq jamiyatdan ajratilmaydi, lekin uning erkin harakatlanishi sezilarli darajada cheklanadi. Masalan, uyidan chiqish, muayyan joylarga borish, ayrim shaxslar bilan aloqa qilish taqiqlanishi mumkin. Shu jihatdan u yengil jazolardan og'ir jazolarga o'tishdagi muhim "ko'prik" vazifasini bajaradi. Qoidalarni buzgan taqdirda u ham og'irroq jazo bilan almashtiriladi.

INTIZOMIY QISMGA JO'NATISH. Bu jazo ham faqat harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'llaniladi va ularni maxsus tartibli harbiy qismga joylashtirish orqali amalga oshiriladi. U xizmat bo'yicha cheklashga nisbatan og'irroq bo'lib, shaxsni qisman izolyatsiya qiladi. Shu bilan birga, ayrim hollarda ozodlikdan mahrum qilish o'rniga qo'llanishi mumkinligi uning alternativ jazo sifatidagi ahamiyatini ko'rsatadi.

OZODLIKDAN MAHRUM QILISH. Bu jazo eng asosiy va keng qo'llaniladigan og'ir jazo turlaridan biri bo'lib, shaxsni jamiyatdan to'liq ajratish orqali amalga oshiriladi. U turli darajadagi jinoyatlar uchun differensial tarzda qo'llanilib, koloniyalar tartibi ham jinoyatning og'irligiga qarab belgilanadi. Bu jazo tizimning markaziy bo'g'ini bo'lib, boshqa ko'plab jazolar aynan shu jazo bilan almashtirilishi mumkin.

UMRBOD OZODLIKDAN MAHRUM QILISH. Mazkur jazo favqulodda va eng og'ir jazo chorasi hisoblanadi. U faqat alohida og'ir jinoyatlar uchun qo'llanilib, shaxsni jamiyatdan butunlay va muddatsiz ajratadi. Bu jazo tizimning eng yuqori pog'onasini egallaydi va faqat istisno holatlarda qo'llaniladi.

HARBIY YOKI MAXSUS UNVONDAN MAHRUM QILISH. Bu qo'shimcha jazo turi bo'lib, shaxsning ijtimoiy-huquqiy maqomiga ta'sir qiladi. U asosan og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar uchun qo'llanilib, shaxsni uning oldingi mavqeidan mahrum qilish orqali qo'shimcha jazolovchi va ogohlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

UMUMIY XULOSA (O'ZARO BOGLIQLIK)

Mazkur jazo turlari o'zaro uzviy bog'langan yagona tizimni tashkil etadi. Ular yengilidan og'iriga qarab bosqichma-bosqich joylashgan bo'lib, bir jazo samara bermagan yoki undan bo'yin tovlash holatlarida

keyingi, og'irroq jazo bilan almashtirilishi mumkin. Shu tariqa jinoyat qonunchiligi jazoni individuallashtirish, insonparvarlik va muqarrarlik prinsiplarini bir vaqtning o'zida ta'minlaydi.

Jazo turi	Qo'llanilish tartibi (Asosiy/Qo'shimcha)	Muddati yoki miqdori
Jarima	Asosiy	BHMning 5 baravaridan 600 baravarigacha
Muayyan huquqdan mahrum qilish	Ham asosiy ham qo'shimcha	Asosiy: 1 yildan 5 yilgacha Qo'shimcha: 1 yildan 3 yilgacha
Majburiy jamoat ishlari	Asosiy	120 soatdan 480 soatgacha
Axloq tuzatish ishlari	Asosiy	6 oydan 3 yilgacha
Xizmat bo'yicha cheklash	Asosiy (faqat harbiylar uchun)	2 oydan 3 yilgacha
Ozodlikni cheklash	Asosiy	1 oydan 5 yilgacha
Intizomiy qismga jo'natish	Asosiy (faqat harbiylar uchun)	3 oydan 1 yilgacha
Ozodlikdan mahrum qilish	Asosiy	1 oydan 20 yilgacha (ayrim hollarda 25 yil)
Umrbod ozodlikdan mahrum qilish	Asosiy	Muddatsiz (shartli ozod etilmaydi)
Harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish	Qo'shimcha	Muddat belgilanmaydi (bir martalik chora)

Mazkur jadvaldan ko'rinib turibdiki, jazo turlari yengilidan og'iriga qarab tizimli ravishda joylashgan. Dastlab iqtisodiy va ijtimoiy ta'sir choralaridan (jarima, jamoat ishlari) boshlanib, keyinchalik shaxs erkinligini cheklovchi (ozodlikni cheklash) va nihoyat uni to'liq izolyatsiya qiluvchi (ozodlikdan mahrum qilish, umrbod jazo) choralar bilan yakunlanadi. Shu bilan birga, ayrim jazolar universal bo'lsa, boshqalari faqat maxsus subyektlarga (masalan, harbiylar) nisbatan qo'llaniladi. Bu esa jazo tizimining moslashuvchan va differensial xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, jazo jinoyat huquqining asosiy institutlaridan biri bo'lib, u nafaqat jazolash, balki tarbiyaviy va profilaktik vazifalarni ham bajaradi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida jazo tizimi aniq va izchil tartibga solingan bo'lib, u insonparvarlik, adolat va individuallashtirish prinsiplari asosida shakllantirilgan.

Jazo turlarining o'zaro bog'liqligi va bosqichma-bosqich qo'llanishi jinoyatchilikka qarshi samarali kurashish imkonini beradi. Shu bois jazo tizimini takomillashtirish va uni amaliyotda to'g'ri qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasiga muvofiq, respublikamizda o'lim jazosi taqiqlangan. Shuningdek, milliy jazo tizimining samaradorligi bevosita bosh qomusimizning 26-moddasida belgilangan kafolatlarga tayanadi. Zero, hech bir shaxsga nisbatan inson qadr-qimmatini kamsituvchi yoki g'ayriinsoniy jazo choralari qo'llanilishi mumkin emasligi haqidagi konstitutsiyaviy norma jinoyat qonunchiligimizning insonparvarlik mohiyatini belgilab beruvchi oliy mezondir⁹.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (YAKUNIY)

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/-6445145#-6445432>
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – [Elektron manba]: <https://lex.uz/docs/-111453> (Murojaat vaqti: 31.03.2026).
3. Karimov I.A. Adolat — qonun ustuvorligida. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikkinchi chaqiriq VI sessiyasidagi ma'ruza, 2001-yil 29-avgust // Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. — 10-jild. — Toshkent: «O'zbekiston», 2002. — B. 26-50.
4. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 2. Jazo haqida ta'limot. Darslik. – Toshkent: O'zR Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 528 b.
5. Usmonaliyev M., Bakunov P. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: «Nasaf», 2010. – 664 b.
6. Карпец И.И. Наказание. Социальные, правовые и криминологические проблемы. — Москва: «Юридическая литература», 1973. — 287 с.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. 2-jild (E-M). – Toshkent: «O'zME» nashriyoti, 2006. – 672 b.
8. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. – Toshkent: Universitet, 2000.

⁹ <https://lex.uz/docs/-6445145#-6445432>